

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 160 (1486), 2025-yil 7-avgust, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Munosabat

MARKAZIY OSIYO – TINCHLIK, BARQARORLIK VA FAROVONLIK MAKONI

Shu yil 4-5-avgust kunlari BMTning Turkmanistonda bo‘lib o‘tgan Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi kun tartibidan o‘rin olgan dolzarb masalalar dunyo jamoatchiligi e‘tiborida bo‘lib turibdi.



BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, shuningdek, boshqa qator davlat va hukumatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ishtirok etgan mazkur nufuzli anjumanda davlatimiz rahbari nutq so‘zladi.

Dengiz yo‘li jahon savdo aylanmasining salmoqli qismini tashkil etadi. Bu o‘zaro savdo-sotiq va hamkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay imkoniyatdir. Ammo 32 mamlakat,

jumladan, Markaziy Osiyoning barcha davlati dengizga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Geografik jihatdan dengiz portlaridan olislik, dengiz yo‘llariga bir nechta davlat hududi orqali chiqish esa qator muammolarni vujudga keltirmoqda. Bular yuqori tariflar, transport yo‘laklari va infratuzilmalarning o‘tkazish imkoniyati cheklangani, shuningdek, boshqa davlatlarning bojxona-tranzit siyosatiga bog‘liqlikda namoyon bo‘lmoqda.

Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, bunday omillar ta‘sirida, xususan, transport xarajati yuqoriligi va tranzit tizimi beqarorligi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi har yili yalpi ichki mahsulotining ikki foizigacha teng qismini yo‘qotmoqda. Logistika xarajati mahsulotlar umumiy narxida 60 foizigacha yetyapti. Bu raqam jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan bir necha barobar yuqori. Shu bois, ishonchli yangi tranzit yo‘laklari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda.

Prezidentimiz shu xususda to‘xtalar ekan, tadbir ishtirokchilarini birlashtirgan kun tartibi fundamental masala — adolat masalasiga daxldorligini, bu — dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan davlatlarga jahon iqtisodiyotida teng sharoitlarda ishtirok etish imkoniyatini ta‘minlash ekanini alohida qayd etdi.

[Davomi 2-betda](#)

O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARI MINTAQA RIVOJIDA KATTA AHAMIYATGA EGA

Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk ipak yo‘lidagi qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva kabi yirik shaharlar IX – XVI asrlarda dunyoning savdo, tijorat, ilm-fan, madaniyat va san‘at markazlari sifatida olamga mashhur bo‘lgan. Karvon yo‘li markazida joylashgani qadim kentlarimizda yirik bozorlar, saroy va qal‘alar qad rostlashi, ilm-fan rivoji hisobiga buyuk allomalar yetishib chiqishi, aholining farovon hayot kechirishiga zamin yaratgan.

Bu davrlarda uzoq masofalarga mahsulot tashishda quruqlik yo‘lidani, tuya, ot, fil kabi hayvonlardan tuzilgan yirik karvonlardan foydalanilgan. Bunday karvonlar turli buyumlar bilan birga madaniyat, ilm-fanning ilg‘or

yutuqlarini ham olib borgan. Shu ma‘noda, O‘zbekistonning yirik karvon yo‘li markazida joylashishi uning taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

[Davomi 2-betda](#)



Biz tanlagan yo‘l

BUYUKLIK QUDRATI TIMSOLI

YANGI TOSHKENT – ZAMONAVIY EKOSHAHARSOZLIKNING YORQIN NAMUNASI

Saraton. Quyosh harorati tandirning onam kosov bilan titgan cho‘g‘laridek baland. Nurlari tanangga jayraning tikanlaridek sanchilib, achishtirib yuboradi. Bir fursat quyosh tig‘ida yursang, boshingga to‘qmoq bilan urgandek ko‘zlaring qisilib, talmovsirab qolasan kishi.

Ishxonarning shundoqqina biqinida joylashgan bekatga yetib olguncha terga botdim. U yerda ham odam ko‘p. Bekat soyasiga tumonat yo‘lovchi sig‘ishga urinadi. Ammo befoyda, o‘smirning do‘ppidan toshib turgan qalin sochlaridek, odamlar soyadan toshib turadi. Men u tomonga yurib ovora ham bo‘lmadim. Naq nayzadek sanchilayotgan quyosh tig‘ida turaverdim. Xayriyatki, avtobus ko‘p kuttirmadi. Ulovga chiqishim bilan boshqa bir olamga tushgandek bo‘ldim. Sovutkichning mayin shabadasini to‘s-to‘polondan keyin yer yuzini yuvintirgan yomg‘irdek tanamga rohat bag‘ishladi.

[Davomi 3-betda](#)



Tahlil

2017-yildan boshlab mamlakatimizda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, sud-huquq, ijtimoiy soha va tashqi siyosatda keng ko‘lamli islohotlar yo‘liga o‘tili. Bu siyosiy, institutsional va iqtisodiy yangilanishlar 2021-yildan yangi bosqichga ko‘tarildi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi yurt kelajagini belgilovchi asosiy hujjat bo‘lib, uning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida raqamli transformatsiya alohida qayd etilgan.

Raqamli iqtisodiyot: MAQSAD ANIQ, KUTILAYOTGAN SAMARA ESA ZALVORLI

Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Raqamli texnologiyalar — bu bugun yoki ertaga emas, balki kecha boshlanishi kerak bo‘lgan islohotlar yo‘li”. Ushbu fikr yangi O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyot modelida raqamli iqtisodiyotning naqadar muhim ekani, u ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishning bosh drayveriga aylanayotganini anglatadi.

[Davomi 4-betda](#)



Agrotarmoq

FERMER ENDI DALASIGA NIMA EKISHNI O‘ZI HAL QILADI

Bu oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, dehqonlar daromadini oshirishga zamin yaratadi

Yurtimizda qishloq xo‘jaligini boshqarish tizimini takomillashtirish, agrar sektorni modernizatsiyalash, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, resurs tejaydigan va intensiv zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Sohadagi islohotlarda asosiy e‘tibor suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etish, xo‘jalik va korxonalarning moddiy-texnik bazasi hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilayotir.

Ayniqsa, so‘nggi vaqtlarda qayta ishlash va eksportga yo‘naltirilgan agrosanoat iqtisodiyotimizning asosiy



bo‘g‘inlaridan biriga aylandi. Oxirgi sakkiz yilda soha rivojiga doir ko‘plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2025-yil 3-fevralda qabul qilingan “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun xalqimizning oziq-ovqat xavfsizligini kafolatli ta‘minlashga qaratilgan tarixiy hujjat bo‘ldi.

[Davomi 4-betda](#)



Bizning suhbat

BUTUN KOINOT MATEMATIKA TILIDA YOZILGAN YAXLIT MO‘JIZA

Dunyo tamadduniga beshik bo‘lgan O‘zbekiston zaminida asrlar davomida ilm-fan rivojlangan. Insoniyatning ilmiy va ma‘naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk allomalar asarlari va kashfiyotlari bilan nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi zamongacha ilm ahlini hayratlantirib kelmoqda. Orada bir muddat inqiroz davrini boshidan kechirgan ilm-fan bugun buyuk ajdodlariga munosib ravishda rivojlanishga yuz tutdi. Bu qutlug‘ jarayonda hayotini ilimga bag‘ishlagan, tiriklikning butun mazmun-mohiyatini faqat ilmda deb bilgan ustoz olimlarning o‘rni bo‘lakcha. Zero, ularning boy hayot yo‘li, bebaho tajribasi insonlar uchun yo‘lchi yulduz, qalbarga nur taratuvchi ziyodir.



Bugungi suhbatdoshimiz shunday fidoyi insonlardan biri — matematik olim, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, akademik Shavkat ALIMOV bo‘ldi.

— Prezidentimizning davlat rahbari sifatida dastlabki uchrashuvi ilm-fan vakillari bilan bo‘lgani o‘zbek olimlari hayotida katta voqealidir, — deydi Shavkat Alimov suhbat avvalida. — O‘sha paytda men Kuala-Lumpurdagi Malayziya mikroelektronik tizimlar institutining matematik modellashirish laboratoriyasi rahbari edim. Uchrashuvda ishtirok etish uchun bir kunga O‘zbekistonga keldim. Biz, olimlar oldiga katta vazifalar qo‘yildi. Ilm-fanning ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor qaratildi. Bundan ruhlandik. Shundan so‘ng Malayziyadagi kompaniya bilan shartnomani tugatib, O‘zbekistonga qaytdim va ilm-fan rivojiga hissa qo‘shishni istadim. Kelganimdan juda mamnun bo‘ldim. Bir qancha shogirdlar tayyorlayapman. Ularning hayoti, dunyovqarashi, turmush tarzi o‘zgarayotganini ko‘rib xursand bo‘laman.

[Davomi 5-betda](#)

JADID BOBOLARIMIZ ORZU QILGAN KUNLAR

6

SPORTIMIZDAGI MUAZZAM G‘ALABAGA BAG‘ISHLANGAN KITOB

5

Munosabat

MARKAZIY OSIYO – TINCHLIK, BARQARORLIK VA FAROVONLIK MAKONI

Boshlanishi 1-betda

— Bu oʻta dolzarb vazifani hal etish uchun uchta prinsipial shartni bajarish lozim. Bular — barqaror rivojlanish asosi sifatida infratuzilmani modernizatsiya qilish, tranzit muammolarini bartaraf etish maqsadida oʻzaro bogʻliqlikni kuchaytirish, global teng huquqlilikning muhim elementi boʻlgan rivojlanish huquqini taʼminlashdir, dedi davlatimiz rahbari.

Shu maqsadda Oʻzbekistonda keyingi yillarda xususiy sektorni faol jalb etgan holda zamonaviy transport-logistika tarmoqlarini barpo etish boʻyicha tizimli qadamlar tashlanmoqda. Mamlakatimiz logistika ochiqligi va shaffofligi masalalarida yuqori dinamika koʻrsatyapti. Savdo-transport jarayonlarini raqamlashtirish borasida kompleks chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Iqtisodiyotda tuzilmaviy islohotlar,



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

savdo tizimi libarallashgani va investitsiya muhiti tubdan yaxshilangani salmoqli natijalar bermocda. Raqobatbardoshlik oshdi, innovatsion taraqqiyot tezlashdi.

Markaziy Osiyoda oʻzaro ishonch va sheriklik yangi darajaga koʻtarilgani esa jadal oʻzgarishlarga kuchli turki bermocda. Hozir mintaqamizda yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda. Markaziy Osiyoni Sharq va Gʻarb, Shimol va Janub oʻrtasidagi toʻlaqonli tranzit xabiga aylantirish uchun yirik dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro konferensiya kun tartibi nihoyatda tigʻiz boʻldi. Uning doirasida mintaqaviy va global muammolar yechimiga oid qator tadbirlar ham tashkil etildi.

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va qardosh turkman xalqiga yuksak davlat mukofoti uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

— Ushbu mukofot Oʻzbekiston va uning koʻp millatli xalqiga alohida eʼtibor va hurmat, Prezidentimiz tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mintaqasida doʻstlik, yaxshi koʻshnichilik, oʻzaro ishonch va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi xayrli ishlarining katta eʼtirofi boʻldi, — deydi Oliy Majlis Senati qoʻmita raisi oʻrinbosari Qobil Tursunov. — Davlatimiz rahbariga taqdim etilgan bu mukofot birinchisi emas, Prezidentimiz ilgari ham qator davlatlarning nufuzli orden va mukofotlari

bilan taqdirlangan. Qozogʻistonning “Oltin qiran” va “Doʻstlik”, Qirgʻizistonning “Danaker”, Tojikistonning “Zarrintoj”, Rossiyaning Aleksandr Nevskiy, Fransiyaning Faxriy legion, Turkiyaning “Respublika” ordenlari, Turkiy dunyoning oliy ordeni, MDH faxriy nishoni, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining faxriy nishoni va boshqalar shular jumlasidan.

Tabiiyki, bu soʻnggi yillarda mamlakatimizdagi ochiqlik, oshkoralik, oʻzaro doʻstlik, yaxshi koʻshnichilik siyosatining xalqaro miqyosdagi muhim eʼtirofidir. Ushbu tadbir bunday aloqalarni yanada rivojlantirish, yurtimizni, mintaqamizni taraqqiy ettirishda muhim qadam boʻladi.

— Prezidentimiz Turkmanistonning yuksak davlat mukofoti bilan taqdirlangani butun Oʻzbekiston xalqi qatorida shu zaminda yashayotgan turkman millati vakillariga ham yuksak faxr-iftixor baxsh etdi, — deydi Turkman milliy-madaniy markazi rahbari Gul dona Avezdurdyeva. — Bu yangi Oʻzbekistonning doʻstona va tinchlikparvar tashqi siyosatiga berilgan yuksak bahodir. Davlatimizning ana shunday egzu siyosati tufayli qoʻshni mamlakatlar bilan aloqalar yil sayin rivojlanyapti. Xususan, boy tarixiy tajriba, qardoshlik va oʻzaro hurmat anʼanalariga asoslangan Oʻzbekiston — Turkmaniston aloqalari strategik sheriklik darajasiga koʻtarildi. Keyingi yillarda muhim iqtisodiy-gumanitar loyihalar amalga oshirilmoqda, oʻzaro savdo hajmi va kooperatsiya koʻlami keskin oshdi. Bu davlatlarimiz taraqqiyoti va xalqlarimiz farovonligi oshishiga mustahkam zamin yaratyapti. Ishonchimiz komilki, oʻzaro munosabatlarimiz bundan buyon ham mustahkamlanib boraveradi.

Ushbu tadbir mintaqaviy oʻziga xoslik va madaniy rang-baranglikning navbatdagi namunasi sifatida oʻzaro anglashuvni mustahkamlashga hamda Markaziy Osiyoni tinchlik, barqarorlik va farovonlik makoni sifatida namoyon etishda muhim qadam boʻldi. Uning doirasida qabul qilingan Avaza deklaratsiyasida belgilangan chora-tadbirlar roʻyogba chiqishi Markaziy Osiyo davlatlarining oʻzaro integratsiyasini kuchaytirish, doʻstlik, qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlash, dengizga chiqish imkoni boʻlmagan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi va yorugʻ istiqbolarni ochishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Prezidentimizning ushbu amaliy tashrif Oʻzbekiston — Turkmaniston munosabatlari rivojiga yangi surʼat bagʻishlashi bilan birga davlatlarimiz oʻrtasidagi yaqin hamkorlik, qon-qardoshlik, yaxshi koʻshnichilik aloqalarining oʻziga xos yorqin ifodasi boʻldi. Zero, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov Turkmanistonda shakllangan protokol tartib-qoidalaridan chetga chiqib, Prezidentimizni erga portda shaxsan kuzatib qoʻygani ham oʻzaro hurmatga asoslangan samimiy va doʻstona munosabatlarimiz, xalqlarimiz oʻrtasidagi chinakam qardoshlik rishtalarining bebaho namunasidir.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Nuqtayi nazar

GLOBAL ADOLAT VA INTEGRATSIYA

Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, Markaziy Osiyo transport xarajatlari va tranzitdagi noaniqliklar tufayli har yili yalpi ichki mahsulotning 2 foizigacha qismini yoʻqotmoqda. Aynan shunday muammolar yechimini topish maqsadida BMTning Turkmanistonda boʻlib oʻtgan Dengizga chiqish imkoni boʻlmagan rivojlanayotgan mamlakatlar boʻyicha uchinchi konferensiyasi muhim siyosiy va iqtisodiy platforma vazifasini oʻtadi.

Prezidentimizning mazkur konferensiyada ishtirok etish uchun Turkmanistonga amaliy tashrif yurtimiz uchun muhim ahamiyatga ega boʻldi. U mamlakatimizning geosiyosiy va iqtisodiy maqsadlarini ilgari surish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladigan aniq va pragmatik tashabbuslar bilan boyitildi. Bu tashrif Oʻzbekistonning oʻz manfaatlarini himoya qiluvchi va global muammolarga yechim topishda faol ishtirok etuvchi davlat sifatidagi obroʻsini oshirmocda.

Konferensiyada Prezidentimiz nutqi ana shu global muammolarning Markaziy Osiyoga xos jihatlariga urgʻu berish va ularning yechimi boʻyicha qator muhim tashabbuslarni ilgari surish bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, bugungi kun tartibi adolat masalasiga taalluqli, yaʼni dengizga chiqish imkoni boʻlmagan rivojlanayotgan mamlakatlarga jahon iqtisodiyotida teng sharoitlarda ishtirok etish imkoniyatini yaratishdir. Mazkur anjuman nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham tranzit va logistika muammolarini hal etish, yangi savdo yoʻlaklarini ochish va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Oʻzbekiston Prezidentining takliflari dengizga chiqish imkoni boʻlmagan mamlakatlarning muammolarini tizimli va kompleks hal etishga qaratilgan yagona “yoʻl xaritasi”ni ishlab chiqishga xizmat qilishi mumkin.

Dengizga chiqish imkoni boʻlmagan mamlakatlar, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun yuqori transport xarajatlari, tranzit yoʻlaklari va infratuzilmasining cheklangani, shuningdek, boshqa mamlakatlarning bojxona-tranzit siyosatiga qaramlik

kabi muammolar iqtisodiy rivojlanishga jiddiy toʻsiq boʻlib kelmoqda.

Prezidentimiz ushbu dolzarb muammoni hal qilish uchun uchta prinsipial tashabbusni ilgari surdi: barqaror rivojlanish asosi sifatida infratuzilmani modernizatsiya qilish, tranzit muammolarining oldini olish maqsadida oʻzaro bogʻliqlikni kuchaytirish va global teng huquqlilikning asosiy elementi boʻlgan rivojlanish huquqini taʼminlash. Bu tamoyillar nafaqat Oʻzbekistonning, balki dengizga chiqish imkoni boʻlmagan barcha mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va barqaror oʻsishi uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonning transport-logistika tarmogʻini shakllantirish, savdo-transport jarayonlarini raqamlashtirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi yutuqlari bu yoʻnalishdagi jiddiy qadamlarni koʻrsatadi. Markaziy Osiyoda oʻzaro ishonch va sheriklikning yangi darajaga koʻtarilishi mintaqada yagona transport-logistika makoni shakllanishiga turki bermocda. “Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston” temir yoʻli qurilishi boshlanishi va “Oʻzbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya” transport yoʻlagi orqali yuk tashish hajmining oshishi mintaqaviy hamkorlikning amaliy natijalaridir.

Prezidentimiz konferensiyada ilgari surgan aniq taklif va tashabbuslar siyosiy tahlil nuqtayi nazaridan alohida eʼtiborga loyiq.

Birinchidan, “Oʻzbekiston — Afgʻoniston — Pokiston” temir yoʻli loyihasi qurilishini jadallashtirish. Uning “Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston” temir yoʻli magistrali bilan tutashtirilishi mintaqada yangi savdo-iqtisodiy makon va barqaror transport infratuzilmasini shakllantirish uchun ulkan geosiyosiy va iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu Markaziy

Osiyoni Janubiy Osiyo bilan bogʻlab, yangi tranzit xabini vujudga keltiradi hamda mintaqaning global savdodagi oʻrnini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, oʻrta yoʻlak salohiyatini toʻliq ishga solish. Oʻzaro kelishilgan tranzit siyosati, qoidalarini unifikatsiya qilish va konteyner tashuvlari uchun maqbul tariflarni joriy etish orqali Sharq va Gʻarb, Shimol va Janub oʻrtasidagi toʻlaqonli tranzit xabiga aylanish strategik ahamiyatga ega. Bu Yevroosiyoing tranzit salohiyatini oshirib, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka ham xizmat qiladi.

Uchinchidan, BMT shafeligida Tranzit kafolatlari toʻgʻrisidagi global bitimni ishlab chiqish. Ushbu bitimning taklif etilishi xalqaro huquqiy asoslarni mustahkamlashga qaratilgan muhim qadam. U portlar va kommunikatsiyalardan adolati foydalanish shartlarini taʼminlash, yuk tashishda xavf-xatarlarni pasaytirish va global logistika tengsizlikni kamaytirish orqali mazkur davlatlarning iqtisodiy xavfsizligini oshiradi.

Toʻrtinchidan, dengizga chiqish imkoni boʻlmagan mamlakatlarning logistika integratsiyasiga koʻmaklashish jamgʻarmasini tuzish. Yirik infratuzilmaviy loyihalarini moliyalashtirish uchun moshlashuvchan investitsiya vositalariga ehtiyojni hisobga olgan holda bu jamgʻarma tashkil etilishi mamlakatlarning infratuzilmaviy rivojlanishi uchun zarur qariyb 40 milliard dollarlik investitsiyani jalb qilishga yordam beradi. Bu siyosiy irodani moliyaviy mexanizmlar bilan mustahkamlashga qaratilgan amaliy harakatdir.

Beshinchidan, dengizga chiqish imkoni boʻlmagan mamlakatlarning “Zaiflik global indeksi”ni ishlab chiqish. Bu indeks tranzit imkoniyatlari cheklanishini xolisona aniqlash, xalqaro moliyaviy-texnik dasturlarni kengaytirish va resurslarni real sharoitlarni hisobga olgan holda samarali taqsimlash uchun ilmiy asos yaratadi. Bu siyosiy qarorlarni obyektiv maʼlumotlarga asoslashga imkon beradi.

Oʻzbekistonning mintaq va xalqaro maydondagi yangi siyosiy hamda iqtisodiy strategiyasi dengizga chiqish yoʻliga ega boʻlmagan mamlakatlarning muammolarini hal qilish orqali mamlakatni mintaqaviy transport-logistika xabiga aylantirish va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yangi surʼat berishdir.

Fazliddin MOʻMINOV,
Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar
vazirligi boʻlim boshligʻi



OʻZBEKISTON TASHABBUSLARI

mintaqa rivojida katta ahamiyatga ega

Boshlanishi 1-betda

XV-XVII asrlarda turli jinoiy guruhlar, qaroqchilar tomonidan talangan hamda bir-biri bilan urush holatidagi davlatlar chegaralarida harakatlanishga qiyналgan savdogarlar yuk tashish uchun muqobil yoʻllarni qidira boshladi. Bu esa buyuk geografik kashfiyotlarga sabab boʻldi. Nafaqat yangi hududlar kashf etilishi, balki dengiz yoʻlining quruqlik yoʻlidan ustun jihatlarini koʻrsatib berdi. Xalqaro tranzit sohasida suv yoʻli havo va quruqlik yoʻlidan ancha arzon ekanini bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, ayni shu jihat bugungi kunda quruqlikdagi savdo yoʻllari qiymatini bir oz tushirdi. Boshqacha aytganda, global dunyo bozorida raqobat kuchayib borar ekan, dengiz yoʻllari quruqlikdagi muqobiliga nisbatan mahsulot tanmarxiga katta taʼsir oʻtkazmasligi hisobiga ustuvor ahamiyatga ega boʻldi. Oʻz navbatida, suv havzalari boʻyida joylashgan davlat va port shaharlar shu ustunlik evaziga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishda ilgirilab ketdi. Dengiz va okeanlardan olisda joylashgan mamlakatlar taraqqiyotida esa yangi toʻsiqlar vujudga keldi. Bu toʻsiqlarni yengib oʻtish uchun mamlakatlar oʻziga xos usul va tashabbuslarni hayotga tatbiq etib kelmoqda.

Dunyoda toʻgʻridan toʻgʻri dengizga chiqish imkoniyati boʻlmagan 32 davlat bor. Shundan 16 tasi Afrika, 10 tasi Osiyo, 4 tasi Yevropa, yana 2 tasi Lotin Amerikasida joylashgan, ushbu davlatlarda dunyo aholisining 7 foizi, yaʼni 500 milliondan ortiq kishi istiqomat qiladi.

Oʻzbekiston ham mana shu davlatlar roʻyxatida, yaʼni dunyoda okeanga chiqish uchun kamida ikki davlat hududidan oʻtishi kerak boʻlgan bor-yoʻgʻi ikki davlatdan biri. Biri Oʻzbekiston boʻlsa, ikkinchisi Lixtenshteyn. Shu bois, toʻgʻridan toʻgʻri dengizga chiqish imkoniyatimiz yoʻqligining mamlakatimiz rivojiga taʼsiri boshqalarnikidan salmoqliroq. Xoʻsh, dengizga chiqish imkoniyati boʻlmagan mamlakatlarning taraqqiyoti uchun qanday bir-biriga oʻxshash noquqayliklar bor?

Birinchidan, toʻgʻridan toʻgʻri arzon dengiz transportidan foydalana olmasligi bois, bu mamlakatlarga import mahsulotlar qiymat kirib keladi. Oʻz navbatida, ularning oʻzlari ishlab chiqargan mahsulotlarni eksport qilish xarajati boshqalarnikiga nisbatan baland boʻladi. Bu mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligiga salbiy taʼsir oʻtkazadi. Buni ushbu toifadagi davlatlar eksportining jahon savdosidagi



Turkmanistonning Turkmanboshi shahridagi “Avaza” milliy turizm hududida BMTning Dengizga chiqish imkoni boʻlmagan rivojlanayotgan mamlakatlar boʻyicha uchinchi konferensiyasi boʻlib oʻtdi. Unda raqamlashtirish, “yashil” logistika, iqlim oʻzgarishlari kun tartibiga chiqdi.

ulushi atigi 1,1 foizni tashkil etishi misolida ham koʻrishimiz mumkin.

Ikkinchidan, ushbu mamlakatlar hududining 54 foizidan koʻprogʻi quruqlikdan iborat boʻlgani uchun ularda choʻllanish, yev degradatsiyasi uchraydi. Shuningdek, bunday mamlakatlarning global isish, suv taqsimligi, atrof-muhitning buzilishi kabi global ekologik muammolarga taʼsirchanligi baland boʻladi.

Uchinchidan, kuzatuvlarga koʻra, ular qishloq xoʻjaligi, togʻ-kon sanoati, oʻrmon xoʻjaligi sohalariga nisbatan bogʻlanib qolgan, global bozor oʻzgarishlari, iqtisodiy inqiroz, siyosiy beqarorlik ularga kuchliroq taʼsir oʻtkazadi.

Ushbu omillar bu toifadagi davlatlarda paydo boʻlgan umumiy muammolarni xalqaro darajada oʻrganib chiqish va bartaraf etish borasida dunyo davlatlari oʻzaro hamkorlikda keng koʻlamli chora koʻrishni bugungi kun zaruratiga aylantirdi. Natijada BMT tomonidan shunday xalqaro format tashkil etildi. BMTning dengizga chiqish yoʻliga ega boʻlmagan rivojlanayotgan mamlakatlarning 1 xalqaro konferensiyasi 2003-yil 28-29-avgust kunlari Qozogʻistonning Olmaota shahrida boʻlib oʻtgan. Unda tranzit bitimlariga asos solindi. II xalqaro konferensiya 2014-yil 3-5-noyabr kunlari Avstriyaning Vena shahrida tashkil etilib, asosiy eʼtibor barqaror rivojlanish masalalariga qaratildi.

Kuni kecha Turkmanistonning Turkmanboshi shahridagi “Avaza” milliy turizm hududida BMTning Dengizga chiqish imkoni boʻlmagan rivojlanayotgan mamlakatlar boʻyicha uchinchi konferensiyasi boʻlib oʻtdi. Unda raqamlashtirish, “yashil” logistika, iqlim oʻzgarishlari kun tartibiga chiqdi.

Xalqaro konferensiyada Prezidentimiz ishtirok etib, nutq soʻzlad. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari Turkmanistonga amaliy tashrif davomida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi maslahat uchrashuviga tayyorgarlik koʻrish masalalariga bagʻishlangan tadbirda ishtirok etdi va qator ikki tomonlama muzokaralar oʻtkazdi.

BMT konferensiyasidagi muvaffaqiyatli ishtirok mamlakatimizga geografik joylashuviga mos yangi tashabbuslarni ilgari surish, qoʻshni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash hamda oʻziga xos yoʻnalishda global ovozga ega boʻlish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari konferensiyadagi nutqida dengiz kommunikatsiyalariga toʻgʻridan toʻgʻri chiqa olmaydigan Oʻzbekistonda bu omil qanday muammolarni yuzaga keltirayotganini qayd etdi. Jumladan, transport xarajatlari kattaligi va tranzit tizimi beqarorligi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi har yili yalpi ichki mahsulotning ikki foizigacha yoʻqotayotgani, logistika xarajatlari mahsulotlar umumiy narxida 60 foizgacha yetayotgani, bu raqam jahondagi oʻrtacha koʻrsatkichlardan bir necha barobar yuqori ekaniga doir tahlillarni keltirdi. Albatta, eng yaqin dengiz portlaridan salkam 3 ming kilometr uzoqlikda joylashgan, eng chiqish uchun bir necha davlat hududini bosib oʻtishi kerak boʻlgan Oʻzbekiston bundan eng koʻp zarar koʻrmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, mintaqada ishonchli va arzon yuk tashish yoʻliga ega boʻlish maqsadida hamkor davlatlar bilan “Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston” temir yoʻli qurilishi jadal olib borilyapti. 2024-yil dekabrda start berilgan ushbu loyiha Prezidentimiz tomonidan “Bu doʻst mamlakatlarimiz salkam 30 yil davomida intilib kelgan tom maʼnodagi tarixiy voqeadir”, deya eʼtirof etilgan. Ushbu yoʻl orqali yiliga 15 million tonna yuk tashiladi. Xitoydan Yevropa mamlakatlariga yuk yetkazib berish masofasi bir necha ming kilometr, muddati esa deyarli bir haftaga qisqaradi. Shu jihatdan ham uning ishga tushirilishi mintaqaviy savdo va investitsiyalar hajmini bir necha barobar koʻpaytirish, transport xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish, Markaziy Osiyoning ulkan tranzit salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Kelgusida ushbu temir yoʻl liniyasi transafgʻon yoʻlagi bilan tutashib, Xitoy, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo oʻrtasidagi transport-kommunikatsiya tarmoqlarini samarali birlashtirish va kuchaytirishga imkon yaratishi maqsad qilingan. Prezidentimiz konferensiyadagi nutqida “Oʻzbekiston — Afgʻoniston — Pokiston” temir yoʻlini qurish loyihasini tayyorlash va amalga oshirishni tezlashtirish tarafori ekanimizni va uni “Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston” temir yoʻli bilan bogʻlash yangi savdo-iqtisodiy makon va barqaror transport

Dengizga chiqish imkoni boʻlmagan mamlakatlar, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun yuqori transport xarajatlari, tranzit yoʻlaklari va infratuzilmasining cheklangani, shuningdek, boshqa mamlakatlarning bojxona-tranzit siyosatiga qaramlik kabi muammolar iqtisodiy rivojlanishga jiddiy toʻsiq boʻlib kelmoqda.

S.TURDIQULOV,
jurnalst

“Sohadagi puxta o‘ylangan va izchil siyosat natijasida so‘nggi uch yilda 250 ming gektar paxta va g‘alla yeri qisqartirilib, oziq-ovqat mahsulotlari uchun ajratildi. 160 ming gektar yangi bog‘ va tokzor barpo etilib, eskirgan 107 ming gektari yangilandi. 1 milliard dollarlik 1500 ta oziq-ovqat loyihasi ishga tushirildi.



Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 20-iyundagi “Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga xizmat qilayotir.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi, Suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dastur agrar tarmoqni jadal taraqqiy ettirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni etib belgilanganini esa yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, sohaga bozor munosabatlarini joriy etish borasidagi keng ko‘lamli islohotlarning mantiqiy ifodasi deb baholash mumkin.

Sohadagi puxta o‘ylangan va izchil siyosat



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



natijasida so‘nggi uch yilda 250 ming gektar paxta va g‘alla yeri qisqartirilib, oziq-ovqat mahsulotlari uchun ajratildi. 160 ming gektar yangi bog‘ va tokzor barpo etilib, eskirgan 107 ming gektari yangilandi. 1 milliard dollarlik 1500 ta oziq-ovqat loyihasi ishga tushirildi.

Oxirgi yillarda sohadagi jadal islohotlar xalqaro miqyosda ham keng e‘tirof etilmoqda. Buni O‘zbekiston o‘tgan oyda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti — FAO kengashi a‘zoligiga saylangani misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Bu esa milliy va mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surish, yangi loyihalarga mablag‘ jalb qilish uchun katta imkoniyatdir.

Prezidentimiz shu yil 31-iyul kuni qishloq xo‘jaligida kosmik ma‘lumotlardan foydalanish va raqamlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazib, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Ushbu yig‘ilish 30-iyul kuni bo‘lib o‘tgan videoselektorning mantiqiy davomi bo‘ldi. Meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini



Prezidentimizning 2024-yil 14-oktabrdagi farmoniga muvofiq, iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalar joriy etilmoqda. Jumladan, bu qishloq va suv xo‘jaligidagi haqiqiy holatni, kamchiliklarni ochiq-oydin ko‘rsatib beryapti. Ikki yil mobaynida sohada foydalanilayotgan 4 million gektardan ziyod yer kosmik monitoring qilindi. Natijada ayrim maydonlarda hisobotlarda ko‘rsatilgan ekin ekilmagani, ba‘zan esa zaxiradagi yoki egasi noma‘lum yerlarga ekilgani aniqlandi.

Shu ma‘noda, davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlarning maqsadli ishlatilishini masofaviy monitoring qiladigan tizim yo‘lga qo‘yilishi ayni muddao bo‘ldi.

Iqlim o‘zgarishi va suv taqchilligidan kelib chiqib, yurtimizda suvni kam talab qiladigan yangi navlar va agrotexnologiyaga o‘tilmoqda. Lekin ekin sug‘orishda suv sarfi me‘yori hozirgi talabga javob bermaydi. Boz ustiga, gidromodul rayonlashtirish yondashuvi ham eskirgan. Oqibatda kanallar oxirida joylashgan 3 mingdan ziyod fermerga suv yetib bormayapti.

Yig‘ilishda shu va boshqa qator masalalarga e‘tibor qaratilar ekan, qishloq va suv xo‘jaligi tizimidagi ilmiy institutlarni jalb qilgan holda sug‘orish me‘yori va gidromodul rayonlashtirishni to‘liq yangilash vazifasi qo‘yildi. Bu esa suv tejamkorligiga erishish, iqlimga moslashuvchan yangi navlar yaratishga turtki beradi.

Yana bir gap. Bugun fermerlar sarflayotgan suvning haligacha aniq hisobi yo‘q. Davlatimiz rahbari bu masalaga alohida e‘tibor qaratib, buning aniq yechimlarini belgilab berdi. Barcha bosqichlarni raqamlashtirish, suvning konturma-kontur hisobini yuritish zarurligiga urg‘u berildi.

Suv omborlari sig‘imi ham loyihaviy quvvati bo‘yicha hisoblanib kelinar edi. So‘nggi ikki yilda 60 ta yirik suv ombori ilk bor batimetrik tahlildan o‘tkazildi. Loyqa cho‘kkani sababli ayrimlarning sig‘imi kamaygani aniqlandi. Bu jarayonda barcha suv omborlariga “aqli” hisoblagichlar o‘rnatib, suv miqdorini onlayn kuzatish, ulardagi loyqani kamaytirish vazifalari

ko‘rsatib o‘tilgani bebaho boyligimizni asrab-avaylash va undan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Bugun hayotimizni zamonaviy texnologiyalarisiz tasavvuretib bo‘lmaydi. Dunyo raqamlashar ekan, ko‘rsatilayotgan xizmatlar ham eng so‘nggi yechimlarni talab etmoqda. Shu sababli yig‘ilishda sohani raqamlashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Hozir fermerlar yer, kredit, subsidiya va agroxizmatlar bo‘yicha 30 dan ortiq platformadan foydalanayotgani, buni osonlashtirish uchun ular birlashtirilib, “Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsion platformasi ishga tushirilishi urg‘ulandi. Bu fermerlarning ayni dilidagi gap bo‘lib, ham ularning vaqtini tejaydi, ham ortiqcha sarsongarchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, endi dalasiga nima ekishni fermerning o‘zi hal qilishi, buni platformaga o‘zi kiritishi juda to‘g‘ri qaror bo‘ldi. Natijada asosiy, takroriy va to‘qsonbosti ekinlar miqdori oldindan ko‘rinadi. Bu, o‘z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligi, narx-navo barqarorligi va dehqonlarning daromadida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bosh vazir o‘rinbosari boshchiligidagi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha komissiya tuzilishi, yetishmayotgan mahsulotni ko‘paytirish uchun imtiyozli kredit va subsidiya berilishi fermerlar uchun katta imkoniyat va munosib rag‘bat bo‘ladi, desak yanglishmaymiz.

Bular hali hammasi emas. Sohada uchuvchisiz apparatlardan foydalanish ham rejalashtirilmoqda. Kuzda 100 dan ziyod zamonaviy dron olib kelinadi. Buning uchun xususiy sektor jalb etilib, fermerlarga dronlar yordamida xizmatlarni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashiladi.

Ayonki, dalalarda g‘alla o‘rimi nihoyasiga yetgach, hosilni yig‘ib olgandan so‘ng bo‘shagan maydonlarni tozalash ko‘p mehnatni talab etadi. Shuning uchun ayrim fuqaro va fermerlar dalalardagi somon qoldiqlari va poyalarini yoqib yubormoqda. Vaholanki, somonpoyani yoqmasdan turib takroriy ekin ekish uchun yerni haydash shart emas, somon va to‘kilgan boshqalar yig‘ib olingach, yerga suv yugurtirib, ekin ekiladigan qatorlar yumshatilishi evaziga har qanday ekin ekish mumkin.

Yig‘ilishda shu masalaga ham alohida e‘tibor qaratilib, somonpoyalarni yoqishga chek qo‘yishning qonuniy asoslarini yaratish zarurligi aytiladi.

Kosmik tadqiqotlarda qurilish, kadastr, noruda konlar, o‘rmon va yaylov yerlari bo‘yicha ham tahlillar borligi ta‘kidlanib, vazirlar va hokimlarga ularni o‘rganib, rejalar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Umuman olganda, bugun qishloq xo‘jaligidagi islohotlar xalqimizning farovon turmush kechirishi, yurtimiz taraqqiyotini ta‘minlashning kafolati bo‘lib xizmat qilaypti. Belgilab berilgan salmoqli vazifalar ijrosini ta‘minlashda esa barcha rahbarlar qatori biz — deputatlar ham faol va tashabbuskor bo‘lishimiz kerak.

Tahlil

Boshlanishi 1-betda

2020-yildan boshlab qabul qilingan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar ushbu yo‘nalishdagi muhim qadamlar bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2018-yil 14-maydagi “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan elektron to‘lov infratuzilmasi, onlayn savdo maydonchalari va logistika tizimlarini modernizatsiya qilish boshlandi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2020-yil 5-oktabrdagi farmoni bilan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Unda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlarini elektronlashtirish va aholi hamda biznes uchun qulay raqamli muhit yaratish belgilab berilgan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida keng qamrovli raqamli transformatsiya jarayoni boshlandi. Xususan, davlat boshqaruvida “Elektron hukumat” tizimi o‘rnatilib, 300 dan ortiq davlat xizmati raqamlashtirildi, moliya sohasida byudjet xarajatlari, tender va xaridlar onlayn platformaga o‘tkazildi, sog‘liqni saqlash tizimida “e-poliklinika” tizimi ishga tushirildi. Ta‘lim tizimida “my.edu.uz”, “kundalik.uz” va “eduportal.uz” platformalari orqali elektron darsliklar, rejalashtirish va monitoring amalga oshirilayotir. Sanoat va ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalar asosida “aqli sanoat” tamoyillari joriy etildi va qishloq xo‘jaligida “Agroportal.uz” orqali yer, suv, texnika va hosil monitoringi avtomatlashtirildi.

Raqamli iqtisodiyot, shuningdek, eksport salohiyatini kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlari samaradorligini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. 2023-yil yakuniga ko‘ra, axborot texnologiyalari xizmatlar eksporti hajmi 140 million AQSH dollariga yetdi va bu ko‘rsatkich 2020-yildagidan 2,4 barobar oshdi. Raqamli to‘lovlar hajmi esa 2020-yildagi 15,3 trillion so‘mdan 2024-yilda 43,8 trillion so‘mga yetdi.

Raqamli infratuzilmani kuchaytirish maqsadida 2023-2025-yillarda 4 mingdan ortiq maktab yuqori tezlikdagi internetga ulandi, 5G texnologiyasini joriy etish bo‘yicha sinovlar boshlab yuborildi. Bularning barchasi mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun raqamli infratuzilma yaratilishiga asos bo‘lmoqda.

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha strategik maqsadlari xalqaro reytinglarda ham aks etmoqda. BMTning “E-Government Development Index — 2022” reytingida O‘zbekiston 193 davlat orasida 87-o‘rindan 69-o‘ringa ko‘tarildi. Bu davlat xizmatlari, fuqarolar bilan aloqa,

Raqamli iqtisodiyot: MAQSAD ANIQ, KUTILAYOTGAN SAMARA ESA ZALVORLI



Aminjon MARDONOV,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

texnologik tayyorgarlik va ochiqlik borasida muhim ijobiy o‘zgarishlar kechayotganini anglatadi.

Ammo bu yo‘nalishdagi islohotlar tizimli va barqaror rivojlanishni talab qiladi. Xususan, hududlar o‘rtasida raqamli infratuzilma bo‘yicha nomutanosibliklar mavjud, axborot xavfsizligi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda, AKT sohasida malakali mutaxassislar yetishmaydi.

Shu sabab, raqamli iqtisodiyotni faqat texnologik yondashuv emas, balki strategik, ijtimoiy va huquqiy jihatdan muvofiqlashtirilgan siyosat sifatida rivojlantirish zarur. Bu esa O‘zbekistonning uzoq muddatli, barqaror va inkluziv rivojlanish modelini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotning tutgan o‘rnini chuqur va kompleks tahlil qilish maqsadida bir necha ilmiy-uslubiy yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqot uchun asosiy ma‘lumotlar 2020-2024-yillar davomida e‘lon qilingan ochiq statistik hisobotlar asosida tahlil qilindi. Bunda raqamli xizmatlar eksporti, elektron to‘lovlar hajmi, internet foydalanuvchilari va axborot texnologiyalari startaplari soni, hududlar bo‘yicha raqamlashtirish darajasi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganildi.

Ma‘lumotlarning vaqt o‘tishi davomida qanday o‘zgarishini ko‘rsatish maqsadida statistik dinamik qatorlar shakllantirildi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida gistogrammlar, doiraviy diagrammlar, chiziqli grafiklar tuzildi va ular yordamida raqamli iqtisodiyotning asosiy parametrlaridagi o‘rish sur‘atlari va o‘zgarishlar ko‘rsatildi. Ushbu vizual vositalar murakkab statistik ma‘lumotlarni o‘quvchi uchun aniq va qulay ko‘rinishda tushuntirish imkonini berdi.

2020-2024-yillar oraliq‘idagi asosiy ko‘rsatkichlar o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, ayrim indikatorlar xalqaro tajriba, xususan, BMTning Elektron hukumat reytingi, Jahon bankinging Raqamli tayyorgarlik indekslari bilan qiyoslab ko‘rib chiqildi. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi raqamli

hududiy nomutanosiblik muammosini ochib berdi.

Tahlil natijalari asosida O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni izchil rivojlantirish, muammolarni bartaraf etish, strategik qarorlar qabul qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bunda xorijiy ilg‘or tajribalar, xususan, Estoniya, Janubiy Koreya, Hindiston kabi davlatlarning elektron boshqaruv va raqamli infratuzilma sohasidagi tajribalari inobatga olindi.

2024-yil yakuni bo‘yicha O‘zbekistonning hududlar kesimidagi raqamli iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiyalar tahlili raqamli transformatsiya jarayonida mintaqaviy nomutanosibliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Raqamli infratuzilma, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, texnopark va AT startaplarni



rivojlanish darajasini aniqlashga yordam berdi.

Olingan raqamlar asosida iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy holatlar tahlil qilindi. Har bir indikator izchil sharhlab berildi, mavjud ijobiy tendensiyalar bilan birga tizimli kamchiliklar ham aniqlandi. Misol uchun, AT startaplari soni oshgan bo‘lsa-da, aksariyati faqat Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgani

qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlariga mablag‘lar turlicha hajmda ajratilgan.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishga ajratilgan investitsiyalar quyidagi hududlarda yetakchi o‘rinda bo‘ldi:

- Toshkent shahri — 150 milliard so‘m;
- Samarqand viloyati — 95 milliard so‘m;
- Farg‘ona viloyati — 70 milliard so‘m;



“O‘zbekistonda so‘nggi to‘rt yil davomida raqamli sohalarning deyarli barcha tarkibiy qismlarida sezilarli ijobiy o‘rish qayd etilgan. Ayniqsa, internet foydalanuvchilari sonining 22,5 milliondan 31,7 millionga yetgani raqamli infratuzilma kengayganidan dalolat beradi.

- Buxoro viloyati — 55 milliard so‘m;
- Xorazm viloyati — 40 milliard so‘m;

Ushbu grafikdan ko‘rinib turibdiki, eng katta investitsion faollik Toshkent shahri va Samarqand viloyatida qayd etilgan. Bu ushbu hududlarda axborot texnologiyalari parklari, texnoparklar, raqamli markazlar va xalqaro texnologik investorlar bilan faol hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani, shuningdek, kadrlar salohiyati va infratuzilma tayyorgarligi yuqori ekanini bilan bog‘liq.

Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida raqamli iqtisodiyotga investitsiya o‘rtacha darajada bo‘lib, bu hududlarda iqtisodiyotning real sektori (qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat) ustuvorligi saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq‘iston Respublikasi, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida esa raqamli iqtisodiyotga yo‘naltirilgan sarmoya miqdori nisbatan past.

Shuningdek, hududiy raqamlashtirish ko‘rsatkichlari va investitsiya hajmi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan. Investitsiya qancha yuqori bo‘lsa, axborot texnologiyalari xizmatlari, elektron to‘lovlar va elektron tijorat ulushi shuncha katta bo‘lmoqda. Bu holat mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda mintaqaviy yondashuvni kuchaytirish zarurligidan dalolat beradi.

2024-yil davomida “Raqamli hudud” loyihasi doirasida hududiy hokimliklar tomonidan 50 dan ortiq loyiha moliyalashtirildi. Ular raqamli xizmatlar ko‘rsatish, kadastr, ta‘lim, tibbiyot va moliyaviy xizmatlar yo‘nalishlarini qamrab oldi.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiyalar tahlili ko‘rsatadiki, Toshkent va yirik shaharlarda

raqamli transformatsiya tezroq kechayotgan bo‘lsa-da, respublika miqyosida bu jarayonni muvozanatlashtirish uchun hududiy investitsion siyosatni differensiallashtirish, infratuzilma va kadrlar salohiyatini kuchaytirish zarur bo‘lmoqda.

Sohaga eng ko‘p investitsiya yo‘naltirilgan Toshkent va Samarqand viloyatlarida axborot texnologiyalari parklari va texnoparklar faol rivojlanmoqda.

2024-yilda elektron tijorat bozorining asosiy ulushi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelmoqda (35 foiz). Xorazm va Buxoroda hali bu ko‘rsatkich past darajada (10-20 foiz).

O‘zbekistonda so‘nggi to‘rt yil davomida raqamli sohalarning deyarli barcha tarkibiy qismlarida sezilarli ijobiy o‘rish qayd etilgan. Ayniqsa, internet foydalanuvchilari sonining 22,5 milliondan 31,7 millionga yetgani raqamli infratuzilma kengayganidan dalolat beradi. Bu esa raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar bazasi kengayishiga, shuningdek, raqamli savodxonlik darajasi oshishiga turtki bo‘lmoqda.

Raqamli xizmatlar eksporti hajmi 2020-yildagi 58,2 million dollardan 2024-yilda 139,6 million dollargacha oshgan. Bu O‘zbekistonning xalqaro axborot texnologiyalari xizmatlari bozoridaagi ishtiroki tobora kuchayayotganidan dalolat beradi. Axborot texnologiyalari va texnoparklarni qo‘llab-quvvatlash choralari shu natijaga olib keldi.

Sirasini aytganda, raqamli iqtisodiyot mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini yuksaltiribgina qolmay, odamlar hayotini qulaylashtirishga, farovon yashashiga xizmat qiladi.

Boshlanishi 1-betda

Hozir mamlakat taraqqiyotini ilm-fansiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, yurtning intellektual, ilmiy va ma‘rifiy salohiyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Geologiya, biologiya, kimyo va matematika fanlarini rivojlantirishga urg‘u berilmoqda.

Oldimida vazifalar ko‘p. Fanning rivojlantirilishi zarur bo‘lgan sohalar bor. Agar biz bugun tariximiz haqida ilmiy izlanishlar qilmasak, bu ishni boshqalar qiladi. Faqat biz ko‘p asrlar davomida shu zaminda o‘zbeklar istiqomat qilganini isbotlashimiz mumkin. Shuningdek, foydali qazilmalarni qidirishda elektromagnit usullarni rivojlantirish ham juda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda geofizikaning matematik usullari, xususan, elektrorazvedka tadqiqotlarining yuqori malakali ilmiy maktabi mavjud edi. Taniqli matematik usullardan foydalanishning qiyinligi ularning kompyuterlarda yaxshi qo‘llanilmaganidir. Matematiklar bunday masalalarni nokorrekt qo‘yilgan deb ataydi.



bir sabab bo‘lmoqda. Arablar al-Xorazmiyni arab matematika mansub desa, forslar forsiy olim sifatida ko‘rishni istayapti. Mana nima uchun tarix fanini rivojlantirish kerak!

O‘zbek filologiyasi ham rivojlantirilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishlardir. Agar biz bunga panja o‘rtidan qarasak, “dunyoda o‘zbek tili yo‘q, bu boshqa tillarning shoxobchasi” degan iddaolar ham paydo bo‘lishi hech gap emas.

Respublikamiz uchun barcha tabiiy fanlar ichida eng muhimi biologik xilma-xillikni o‘rganadigan geologiya bo‘lsa, xalqimiz farovonligi uchun xizmat qiladigan g‘imlab xazinalarni o‘rganadigani geologiyadir. Geologiya va biologiya muammolarini hal qilishda zamonaviy kimyoviy texnologiyalar katta rol o‘ynaydi. Bu esa kimyo fanini ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylantiradi.

Bundan 600 yillar oldin Mirzo Ulug‘bek observatoriyasi dunyoda birinchi o‘rinda edi. Hozir astronomiya bo‘yicha ilmiy ish qilish juda qiyin. Chunki katta moliyaviy quvvat talab etadi. Lekin baribir bu fanni rivojlantirish kerak.

— **Shu o‘rinda matematik olim sifatida bu fan rivojiga qaratilgan e‘tibor va uning samarasi xususida to‘xtalsangiz.**

— Dunyoning ko‘plab yetakchi universitetlarida, AQSH, Yaponiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda ishlaganman. Ammo matematikaga bunday munosabatni hech qayerda ko‘rmaganman. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika instituti Milliy universitetning matematika fakulteti yaqinida joylashgan ajoyib binoga ega bo‘ldi. Bu bilan yagona matematik kompleks yaratildi.

Eng muhim o‘zgarish — iqtidorli yoshlarda matematikaga katta qiziqish paydo bo‘ldi. Ular O‘zbekiston bilim, salohiyat qadrlanadigan mamlakat ekanini tushunmoqda.


Hozirgi vaqtda foydali qazilmalar qidirishning barcha zamonaviy usullari matematik fizikaga asoslangan. Ulardan eng ommaboplari akustik to‘lqinlar xususiyatlarini o‘rganishga asoslangan seysmik razvedka va elektromagnit to‘lqinlar xususiyatlariga asoslangan elektrorazvedka usullaridir.

Ushbu ikki usul o‘rtasidagi farqni tibbiy diagnostika misolida ko‘rish mumkin. Akustik to‘lqinlar fonendoskopda va ultratovush apparatlarida inson tanasini tekshirishda ishlatiladi. Rentgenografiya, kompyuter tomografiyasi kabilar asosida elektromagnit to‘lqinlar yotadi. Bunday texnologiya bilan qo‘yilgan tashxisning aniqligi yaxshi ma‘lum. Shuningdek, foydali qazilmalarni qidirishda elektromagnit usullarni rivojlantirish ham juda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda geofizikaning matematik usullari, xususan, elektrorazvedka tadqiqotlarining yuqori malakali ilmiy maktabi mavjud edi. Taniqli matematik usullardan foydalanishning qiyinligi ularning kompyuterlarda yaxshi qo‘llanilmaganidir. Matematiklar bunday masalalarni nokorrekt qo‘yilgan deb ataydi.

O‘zbekistonda nokorrekt qo‘yilgan masalalar bo‘yicha kuchli matematik maktab ham mavjud edi. Masalan, Samarqand davlat universitetida ajoyib natijaga erishgan professor Sharof Yormuhammedov o‘ttiz besh yillar oldin doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. O‘sha paytda u ishlab chiqqan usullar munosib tan olingan. Olimning shogirdlari ko‘magida izlanishlarni davom ettirib, ushbu maktabning obro‘sini tiklash mumkin. Hozirgi voqelikni hisobga olgan holda, ularni aniq amaliy muammolarni yechishga, masalan, foydali qazilmalarni izlashning elektromagnit usullariga yo‘naltirish zarur.

Bir vaqtlar O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika instituti xodimlari navoiylik geologlar bilan muvaffaqiyatli ishlagan. Gap shundaki, oltin yoki uran kabi foydali qazilmalar yer yuzida birikkan holda emas, balki u yer-bu yerda tasodifiy ravishda saksovil shoxlari misol joylashgan bo‘lishi mumkin. Matematika institutida ishlab chiqilgan statistik usullar saksovil shoxlari tarzida



“Sun‘iy intellektning asosi matematikadir. Matematika sun‘iy intellektning “tili” hisoblanadi. Matematikasiz u yo‘q. Sun‘iy intellekt asosida turli algoritmlar yotadi. Algoritmlarni yaratish, tahlil qilish va optimallashtirishda diskret matematika, kombinatorika, algoritmlar nazariyasi keng qo‘llaniladi.

joylashgan foydali qazilmalarni oldindan aniqlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini berdi. Ushbu yo‘nalishda matematik izlanishlarga qaytish juda muhim ko‘rinadi.

XXI asrda axborotni topish, qayta ishlash, uzatish va saqlash kabi matematik usullar muhim rol o‘ynamoqda. Bularning barchasi, birinchi navbatda, cheklangan matematika bilan bog‘liq bo‘lib, maktabda va oliy ta‘lim muassasalarida butun matematik ta‘limni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shu bois, mamlakatimiz

bo‘lgan. Al-Xorazmiy davrida ilm-fan gullagan. Mirzo Ulug‘bek observatoriyasida olingan natijalarni Yevropa 150 yildan keyin aniqlagan.

Ilm-fan rivoji muayyan davrda to‘xtab qoldi. Ammo bugun butunlay boshqa manzara — Rennessans hodisasiga zamin hozirlanayotgani ko‘ngilga taskin beradi. Uni nimalarda ko‘rish mumkin?

Birinchidan, ilm-fanga e‘tibor tubdan o‘zgardi. Bu yoshlarda katta qiziqish shakllanishiga turki bo‘lmoqda. Barcha zarur sharoit yaratilyapti.

hayot bilan hech qanaqa aloqasi yo‘q. Uning istiqbolli, kelajagi noaniq. Fazo o‘rganila boshlangach, ko‘plar hayron bo‘lgan. Nega kerak bu, shartini koinotni o‘rganish, deya. Bugun barchamiz mobil alroqa vositalaridan foydalanaymiz. Mashinada biror manzilga yo‘l olganimizda GPS qo‘l keladi.

Bundan 30-35 yil oldin xonadonga telefon o‘rnatish oson bo‘lmagan. Agar televizorda yaxshi bir film namoyish etiladigan bo‘lsa, uni tomosha qilish uchun oldindan tayyorgarlik ko‘rilgan. Bugun mobil telefon va “aqli”



televizorlar berayotgan qulayliklarga hech kim hayratlanmay qo‘ydi. Sun‘iy yo‘ldosh belgilarini har qadamma uchratish mumkin. Tibbiyotda zamonaviy texnologiyalar tashxis ko‘yyapti. Sun‘iy intellekt orqali olinayotgan ma‘lumotlar turli kasalliklarning oldini olish va samarali davolash imkonini bermogda. Bu taraqqiyotni hech kim to‘xtata olmaydi. Kelgusida yaratiladigan ilm-fan kashfiyotlari to‘g‘risida gapirish juda qiyin. Ammo katta ixtirolar odamlar hayotini yanada yaxshilashiga umid qilsa bo‘ladi.

Hozirgi ilm-fan ko‘p masalalarga yechim topa olyapti. Imkoniyat bor, ammo sharoit ham muhim. Ilmga yaxshi odamlar, iqtidorli yoshlar jabl etilishi shart. Hozir shunday xayrli ishlar olib borilmoqda.

— **Bugun hayotimizga tobora keng kirib kelayotgan sun‘iy intellekt bilan matematikaning bog‘liqligi nimada?**

— Sun‘iy intellektning asosi matematikadir. Matematika sun‘iy intellektning “tili” hisoblanadi. Matematikasiz u yo‘q. Sun‘iy intellekt asosida turli algoritmlar yotadi. Algoritmlarni yaratish, tahlil qilish va optimallashtirishda diskret matematika, kombinatorika, algoritmlar nazariyasi keng qo‘llaniladi.

Sun‘iy intellektning tabiiy intellekt yaratyapti. Shu bois, u tabiiy intellekt nimanı xohlasa, shuni bajaradi. Sidan istalgan yordamni olishingiz uchun unga salmoqli ma‘lumotlar kerak. Ingliz tilida bu “Big Data” deyiladi. Agar aqlli olim Slni xayrli maqsadlarga yo‘naltirsa, ko‘p yaxshi ishlar qilish mumkin. Kelgusida u hayotimizning barcha jabhasiga katta ta‘sir o‘tkazadi. Jumladan, ilm-fanda ham. Ma‘lumotlarni tahlil qilish va yangi gipotezalar yaratishda sun‘iy intellekt muhim vositaga aylanmoqda.

Bugun ko‘p ishlarni mashinalar bajarayotgani hayratlanarli emas. Ammo inson miyasi, qalbi qadrsizlanishidan ehtiyot bo‘lish kerak. Shaxsiy ma‘lumotlar himoyasi ham yechim talab qiladigan muammolardan. Slining qay darajada yaxshi yoki yomonligi u kimning qo‘lida bo‘lishiga bog‘liq. Har qanday taraqqiyot mahsulini faqat ezigulik yo‘lida ishlatish insoniyatning eng muhim talabi bo‘lib qolayotganini unutmaslik lozim.

— **Matematika siz uchun nima? Qismatmi yoki tasodif?**

— Maktabni bitirganimdan keyin fizika bilan shug‘ullanmoqchi bo‘ldim. Keyin qarasam... Buni tushuntirib bera olmayman. Lekin bugun o‘zim hayronman: men kimman o‘zi? Fizikmi? Matematikmi? Yoki oddiy o‘qituvchimi? Hech qachon “Men matematikman”, deya olmayman.

To‘g‘ri, shu fandan dars beryapman. Ammo zo‘r olim emasman deb o‘ylayman.

Matematik masalani yechganimda buning hayot bilan qanday aloqasi borligini tushunishim kerak. Agar aloqasi bo‘lmasa, qiziqarli bo‘lmaydi. Chunki har bir masalaning ichida hayot bilan bog‘lanish bor. Bo‘lishi kerak ham. Matematika shuuringizni egallagan paytda boshqa narsalar ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Miyaingizda aylanayotgan o‘sha masalaga yechim topmaguncha tinchimaysiz. Bu qanchalar ilhomabxsh ekanini bilganingizda edi...

Matematika ilmda meni ko‘p narsa hayratga soladi. Har xil masalalarni yechganingizda ular orasidagi aloqa unchalik ko‘zga tashlanmaydi. Ammo butun koinot matematika tilida yozilgan yaklit mo‘jiza ekaniga ishonaman. Men buni hayotning har bir jabhasida ko‘raman.

Matematika bilan munosabatda bo‘layotganda ehtiyot bo‘lish kerak. Faqat hisob-kitobga asoslangan hayot naqadar xavfli. Hayotni chiroyli, ma‘noli va barqaror qiladigan insoniy qadriyatlar — har bir jamiyat va inson uchun muhim bo‘lgan ruhiy, axloqiy va ma‘naviy asoslar bor. Ushbu qadriyatlar hayotga mazmun beradi, insonning o‘zini to‘liq his qilishiga ko‘maklashadi va jamiyatda yaxshilikni kuchaytiradi. Ularni baholab, hisob-kitob qilib bo‘lmaydi. Deylik, mehr qarzga berilmaydi. Uni matematikalashtirish xato.

Esimda bor, Milliy universitet (ToshDU) rektori bo‘lgan paytimda qabul vaqtda mas‘ul kotib oldimga kirib, bir abituriyent fizika fakultetiga kirmoqchiligini, ammo to‘rt soat o‘tirib, savollarga hech qanday javob yozmaganini aytdi. Savol Nyutonning uchinchi qonuni haqida edi. Abituriyent topshirgan javob varaqa-sining eng so‘ngida bitta jumla yozilgan edi: “Nyutonning to‘rtinchi qonuni: harakatsiz xarajat nolg teng”. Bu hazil meni hayratlantirdi. “Topinglar shu bolani, universitetga qabul qilamiz”, dedim. Lekin u hujjatlarini olib ketdi. Shu voqeaga ham 40 yilcha bo‘lib qoldi. Men bu bilan barcha muvaffaqiyat zamirida harakat yotadi demogchiman. Yaxshi olim bo‘lib shakllanish uchun genetika, tarbiya, muhit, ta‘lim ahamiyat kasb etishi mumkin. Ammo harakat bo‘lmasa, barchasi nolg teng. Maqsadga yetish uchun juda ko‘p tomonlarni yondashish mumkin, lekin baribir harakat kerak. Ozmi-ko‘pmi erishilgan natijalar zamirida faqat harakat bor.

— **Sizing ilmiy faoliyatingiz o‘zbek ilmi-faniga nima berdi?**

— Uni ayta olmayman. O‘zimga o‘zim baho berishim qiyin. O‘zimni faqat tanqid qilishim mumkin. Hech qachon maqtanmaganiman.

*** Subhatdoshimiz kamtarlik bilan javob berishdan qochadi. Shavkat Allimov Fanlar akademiyasi V.M.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori o‘rinbosari, ikki universitet rektori, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri, tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari, O‘zbekistonning Xitoydagi favqulodda va muxtor elchisi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari va boshqa qator mas‘ul vazifalarda ishlagan. Qaysi lavozimda bo‘lmasin, ilgama ishtiyoq va muhabbat qalbini bir zum tark etmagan. Zero, Imom Buxoriy-niing “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay!” degan so‘zlari nechog‘liq ahamiyat kasb etishini juda yaxshi tushunadi va shunga amal qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

SPORTIMIZDAGI MUAZZAM G‘ALABAGA BAG‘ISHLANGAN KITOB

Sport qat‘iyat, ishonch, do‘stlik, kelajak sari dadil intilish demakdir. Keyingi yillarda mamlakatimizda sportni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘z navbatida, o‘zbekistonlik sportchilar xalqaro musobaqalarda erishayotgan g‘alabalar yurtdoshlarimiz qalbini cheksiz iftixorga to‘ldirmoqda.


Futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi Osiyoning eng kuchli jamoalari ishtirok etgan saralash o‘yinlarida chinakam jasorat va matonat namunasini ko‘rsatib, tom ma‘noda ulkan g‘alabaga erishgani — Vatanimiz tarixida birinchi marta jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritgani sportimiz tarixida yangi sahifa ochdi.

Ushbu buyuk g‘alaba munosabati bilan davlatimiz rahbarining O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zolariga yo‘llagan tabrigida vakillarimiz matonati va jasoratiga yuksak

baho berilib, futbolchilarimiz qo‘lga kiritgan ulkan natijaning mohiyati va ahamiyati chuqur ochib berildi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida yaqinda “Adabiyot” nashriyotida chop etilgan “Bu g‘alaba — muazzam!” nomli kitobda ham sportchilarimizning ana shu tarixiy g‘alabasi ahamiyati keng aks ettirilgan.

Kitob O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zolariga tabrigi bilan boshlanadi. Tabrikda e‘tirof



etilganidek, hech shubhasiz, milliy sportimiz solnomasiga oltin harflar bilan bitiladigan bunday yorqin natija yurtimizdagi millionlab futbol muxlislari, butun xalqimizning necha yillik orzusi edi. Futbolchilarimiz professional bilim va malakasi, tajriba va mahorati, eng muhimi, yuksak irodasi va g‘alabaga bo‘lgan ishonchi bilan ana shunday orzuni real haqiqatga aylantirganlari har qanday tahsinga munosib.

Mazkur kitobdan o‘rin olgan “Xalqimizni yanada birlashtirgan tarixiy yutuq” deb nomlangan maqolada esa shu yilning 10-iyun kuni poytaxtimizdagi “Bunyodkor” stadionida o‘tkazilgan jahon chempionati saralash bosqichining so‘nggi uchrashuvi keng va batafsil yoritilgan. Katta futbol bayrami sifatida o‘tkazilgan ushbu bellashuvni millionlab o‘zbekistonliklar hayajon bilan tomosha qildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev futbolchilarimizni

qo‘llab-quvvatlash uchun stadionga tashrif buyurgani mamlakatimizda millionlar o‘yini rivojiga qaratilayotgan ulkan e‘tiborning yana bir amaliy namunasi bo‘ldi.

Kitobning “Bu sening ham g‘alabangdir, ey Markaziy Osiyo!” deb nomlangan bo‘limida ustoz ijodkorlar, O‘zbekiston xalq shoirilari Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalistlar O‘tkir Rahmat, Minhojiddin Mirzo, Qo‘chqor Norqobil, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimlari Zulfiya Mo‘minova, Rustam Musurmon va boshqa ko‘plab shoirilarning ulkan g‘alabaga bag‘ishlangan she‘rlari bilan tanishish mumkin.

“G‘alaba ustiga g‘alaba, yutuq ortidan yutuq!” nomli bo‘limda esa Samarqand davlat universiteti rektori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, senator Rustam Xolmurodov, Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari Fariza Afro‘z, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalistlar Ahror Ahmedov,

Salim Doniyorov, mahoratli jurnalist Anvar Samadov va boshqa qalamkashlar bilan birga O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi prezidentining birinchi o‘rinbosari Ravshan Ermatov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sportchi Mirjalol Qosimov, futbol sharhlovchisi, “Do‘stlik” ordeni sohibi Mirzahakim To‘xtamirzaev, futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi bosh murabbiysi, “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni sohibi Timur Kapadze, futbol sharhlovchisi, “Shuhrat” medali sohibi Xayrulla Hamidov va boshqa sport jukuyarlarining g‘alaba munosabati bilan bildirgan dil izhorlari keltirilgan.

“Xalqaro e‘tiroflar” bo‘limida Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, FIFA Prezidenti Janni Infantinoning futbolidagi ushbu g‘alabamiz munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga yo‘llagan tabrikdari, xorijiy davlatlar davlat va jamoat arboblari, mashhur sportchi va murabbiylar, turli sohalar namoyandalarining tabrik va munosabatlari, xalqaro nashrlarda e‘lon qilingan tahliliy maqola va reportajlardan namunalari keltirilgan.

Mamlakatimizning nomdor sportchi va murabbiylari, soha fidoyilari haqidagi ma‘lumotlar “O‘zbekiston iftixorlari” bo‘limida kitobxonlar e‘tiboriga havola etilgan.

Jadid bobolarimiz ORZU QILGAN KUNLAR

Har bir millat tarixida uning butun kelgusi taqdirini, rivojlanish yo‘lini belgilab beradigan buyuk burilish nuqtalari bo‘ladi. Xalqimiz uchun ana shunday eng ulug‘, hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmas tarixiy voqealik, shubhasiz, Mustaqilligimiz ayyomidir. Bu shunchaki taqvimdagi qizil sana yoki bir martalik siyosiy akt emas. Mustaqillik taqdirini o‘z qo‘liga olishdek ulkan mas’uliyat, o‘z kelajagini aql-zakovati va mehnati bilan bunyod etishdek sharaflı huquqdir. Bu – millatning o‘zligiga qaytishi, o‘zining ko‘p asrlik davlatchilik an‘analari tiklashi, qadriyatları, tili va madaniyatini erkin rivojlantirishi uchun berilgan beqiyos imkoniyat.



Istiqlol falsafasi shundaki, u bizga nafaqat erkinlikni hadya etdi, balki zimmamizga kelajak avlodlar oldida javobgarlik hissi, o‘z Vatanimizni dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari qatoriga olib chiqishdek muqaddas vazifani ham yukladi. O‘tgan davr mobaynida bosib o‘tilgan murakkab va ayni chog‘da sharaflı yo‘l bugungi kunda bizga yangi uqqlarni ochib bermoqda. Ayniqsa, so‘nggi yetti-sakkiz yil ichida Prezidentimiz boshchiligidagi yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘vor maqsad yo‘lida boshlangan keng qamrovli va shiddatli islohotlar mamlakatimiz hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu tarixiy o‘zgarishlarning tamal toshi, uning eng mustahkam poydevori esa inson kapitalini rivojlantirish, xalqning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ya‘ni ta‘lim va ma‘rifat sohasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish ekani qayd etildi. Zotan, jamiyatda ilm-fan va innovatsiyalarga bo‘lgan e‘tibor kuchayib borarkan, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va nufuzi ham shunga monand yuksalaveradi. Uchinchi Renessans poydevorini qurishdek buyuk vazifa zamirida ham aynan mana shu ezgu g‘oya mujassam.

Bugungi kun islohotlarining falsafasini, uning tarixiy ildizlarini teran anglash uchun bir asr ortiga, millatimiz tarixining eng yorqin va ayni paytda fojiali sahifalaridan biriga nazar tashlashimiz lozim. XX asr boshlarida Turkiston zaminida vujudga kelgan jadidchilik harakati shunchaki maorifchilik oqimi emas, balki millatni qoloqlik va jaholat botqog‘idan qutqarish, uni ozod va farovon ko‘rish yo‘lidagi fidokorona kurash edi. Bu harakat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q. U IX-XII asrlarda yurtimizdan yetishib chiqqan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalarning Birinchi Renessansi hamda Sohbiqiron Amir Temur va temuriylar davrida yuz bergan ikkinchi tamaddun yuksalishining mantiqiy davomi, millat intellektual genofondining yangi sharoitidagi uyg‘onishi edi. Jadidlar o‘zlarini ana shu buyuk ajdodlarning vorislari deb bildilar va o‘sha davr tanazzulining asosiy sababini ilmsizlikda, ma‘rifatsizlikda ko‘rdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurau Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is‘hoqxon Ibrat, Cho‘lpon kabi yuzlab ma‘rifatparvar bobolarimiz o‘sha davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitida, bir tomondan mustamlaka zulmi, ikkinchi tomondan mutaassiblik kishanlariga qarshi ma‘rifat bayrog‘ini baland ko‘tardi.

Jadidlar maktabni isloh qilish, yangi usuldagi ta‘lim muassasalarini tashkil etish orqali yosh avlod ongida dunyoviy bilimlarni, ilg‘or fan yutuqlarini singdirishga urindilar. Ular ochgan maktablarda diniy bilimlar bilan bir qatorda matematika, geografiya, tibbiyot, tarix kabi fanlar o‘qitilgani o‘sha davr uchun haqiqiy inqilob edi. Ular milliy matbuotga asos solib,

gazeta va jurnallar orqali xalqning ko‘zini ochishga, teatr san‘ati orqali (“Padarkush” dramasi) eslang jamiyat illatlarini fosh etishga intildi. Jadidlarning bu sa‘y-harakatlari zamirida birgina maqsad — Turkistonda dunyoning ilg‘or, taraqqiy etgan mamlakatlari qatorida ko‘rish, millatning o‘zligini saqlab qolgan holda uni modernizatsiya qilish orzusi yotardi. Ular Yevropadagi taraqqiyotni ko‘rib, o‘z yurtlaridagi qoloqlikdan iztirob chekdilar. Fitrat o‘zining mashhur “Munozara” asarida ilmsizlik va bid‘at botqog‘iga botgan jamiyatni achchiq tanqid qilgan bo‘lsa, Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobida mukammal inson tarbiyasining asoslarini yaratib berdi. Ular uchun Vatan taraqqiyoti shaxsiy hayotdan, molu dunyodan ustun edi. Shu sababli ham bor mablag‘larini, kuch-g‘ayratlarini va oxir-oqibat hayotlarini ham shu yo‘lga bag‘ishladi.

Jadidlar faoliyatining eng strategik va uzoqni ko‘zlagan yo‘nalishlaridan biri, shubhasiz, iqtidorli yoshlarni Germaniya, Rossiya, Turkiya kabi xorijiy davlatlarga o‘qishga yuborish tashabbusi edi. Ular bu yoshlarni millatning “oltin fondi”, kelajak islohotlarining lokomotivlari sifatida ko‘rdi. Maqsad Yevropaning ilm-fan, texnika, sanoat va boshqaruv sohasidagi yutuqlarini o‘rganib kelgan mutaxassislar hisobiga milliy taraqqiyotni jadallashtirish bo‘lgan. Afsuski, sho‘rolar tuzumining qatag‘on

Ta‘lim tizimi butunlay mafkuralashtirildi, u milliy ruhdan mosuvo etilib, kommunistik g‘oyalarga xizmat qiladigan vositaga aylantirildi. Natijada bir necha avlod o‘zining buyuk ajdodlarini, jadid bobolarining fidokorona kurashini bilmasdan, soxta tarix ruhida voyaga yetdi. Eng sara, vatanparvar ziyolilarimiz, shu jumladan, chet elda o‘qib kelgan yoshlar

“Uchinchi Renessans poydevori faqatgina aniq fanlar yoki texnologiyalar hisobiga qurilmaydi. Uning mustahkamligi ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivoji, tarixni xolis va haqqoniy o‘rganish, yosh avlod ongida Vatanga daxldorlik hissi kuchaytirish bilan bevosita bog‘liq.

ham qatag‘on qilindi. Jadidlar yoqqan ma‘rifat mash‘alasi zo‘rluk bilan o‘chirildi. Ammo ularning g‘oyalari o‘lmadi, xalqning tarixiy xotirasida saqlanib qoldi.

Bugun biz cheksiz faxr bilan aytishimiz mumkinki, mustaqillik sharoifati bilan, ayniqsa, muhtaram Prezidentimizning siyosiy irodasi va

olish eng yuqori darajaga ko‘tarildi. Bu kelajak avlod poydevorini mustahkamlash yo‘lidagi eng to‘g‘ri va strategik qadamdir. Chunki zamonaviy psixologiya va pedagogika fani choron intellektual salohiyatining asosiy qismi aynan ilk bolalik yillarida shakllanishini isbotlagan. Shuning uchun ham bu sohaga kiritilayotgan sarmoya mamlakatimizning yigirma-o‘ttiz yildan keyingi intellektual qiyofasiga kiritilayotgan sarmoyadir. Yangi bog‘chalarda bolalarga nafaqat an‘anaviy she‘r yodlatish, balki mantiqiy fikrlashni, kreativlikni, jamoada ishlashni o‘rgatuvchi zamonaviy metodikalar joriy etilmoqda.

Maktab ta‘limi tizimi ham tub islohotlarni boshdan kechirmoqda. 11 yillik umumiy o‘rta ta‘limning qayta tiklanishi, o‘qituvchilarning jamiyatdagi nufuzi va moddiy rag‘batini oshirishga qaratilgan amaliy choralar, Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ining kengayishi yosh avlodning o‘z iqtidorini har tomonlama namoyon etishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi maktab bitiruvchisi nafaqat bilimlar majmuasini, balki tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, jamoada ishlash kabi hayotiy ko‘nikmalarni ham egallab chiqishi bosh maqsad qilib qo‘yilgan. Bu jarayonda darsliklar mazmuni ham tubdan qayta ko‘rib chiqilmoqda. Endilikda asosiy urg‘u yod olishga emas, balki o‘quvchida mustaqil izlanish, muammolarga yechim topish va amaliyotda bilimlarini qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilmoqda. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvining kirib kelishi, maktablarda “Bir million o‘zbek dasturchisi” kabi loyihalarining amalga oshirilishi o‘quvchilarni yoshligidanoq raqamli dunyo talablariga tayyorlab bormoqda.

Oliy ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlar esa alohida e‘tirofga loyiq. Agar bir necha yil avval yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichi 9-10 foiz atrofida bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu raqam 40 foizdan oshdi. Bu shunchaki sonlar emas, ming-minglab yoshlar taqdiri, oilalar quvonchi, millatning



siyosati bu ezgu niyatlarning to‘liq ro‘yobga chiqishiga imkon bermadi. Bu shunchaki bir fojia emas, balki butun millatning intellektual qanotlarini qayirish edi. Xalqning eng sara farzandlari, millat vijdoni bo‘lgan ziyolilar — yozuvchilar, olimlar, muhandislar, davlat arboblari “xalq dushmani” tamg‘asi bilan yo‘q qilindi. Bu bilan sovet tuzumi xalqni o‘z tarixiy xotirasidan, o‘zligidan judo qilib, manqurt fuqarolardan iborat “yagona sovet xalqi”ni shakllantirishni maqsad qilgandi.

qat‘iyati tufayli jadid bobolarimizning bir asrlik orzu-armonlari amalda, davlat siyosati darajasida o‘zining to‘laqonli ifodasini topmoqda. Bugungi O‘zbekiston ta‘lim tizimidagi islohotlar o‘zining ko‘lami, tizimliliigi va izchilligi bilan ajralib turadi. Islohotlar eng quyi bo‘g‘indan — maktabgacha ta‘limdan boshlandi. Sohaga qaratilayotgan ulkan e‘tibor: minglab yangi bog‘chalor qurilishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi natijasida bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab

intellektual salohiyati oshib borayotganining yaqqol dalili. O‘nlab yangi davlat va nodavlat oliy ta‘lim muassasalari, Webster, Amity kabi dunyoning yetakchi universitetlari filiallarining ochilishi mamlakatimizda sog‘lom raqobat muhitini yaratib, ta‘lim sifati uchun kurashni kuchaytirdi. Eng muhimi, oliy ta‘lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berila boshlandi. Bu, jadidlar orzu qilganidek, oliygohlarning qog‘ozbozlik va ortiqcha nazoratdan olib, haqiqiy ilm-fan, erkin



Abdug‘affor JO‘RAYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

fikr va innovatsiyalar maskaniga aylanishi uchun poydevor yaratmoqda. Akademik mustaqillik oliygohning o‘quv dasturlarini, qabul kvotalarini, hatto o‘qitish tilini mustaqil belgilash huquqidir. Moliyaviy mustaqillik esa byudjetdan tashqari mablag‘larni mustaqil tasarruf etish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, professor-o‘qituvchilar va iqtidorli talabalarni moddiy rag‘batlantirishning samarali tizimini yaratish imkoniyatidir. Bu ikki muhim omil universitetlarni haqiqiy “aqliy markazlar”ga, ilm-fan yutuqlarini tijoratlashtiruvchi innovatsion xablarga aylantirishga xizmat qiladi. Endi oliygohlar o‘z taraqqiyot strategiyasini o‘zi belgilaydi, ta‘lim dasturlarini mehnat bozori talablaridan kelib chiqib shakllantiradi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, ilm-fanni iqtisodiyotning real sektori bilan bog‘lash, uni mamlakat taraqqiyotining drayveriga aylantirish imkonini beradi.

Jadid bobolarimizning xorijda mutaxassislar tayyorlash g‘oyasi bugun “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatida yangicha, yanada keng miqyosda o‘z aksini topganini alohida ta‘kidlash joiz. Prezidentimiz tashabbusi bilan faoliyat tubdan takomillashtirilgan ushbu jamg‘arma bugungi kunda minglab iqtidorli yigit-qizlarni dunyoning eng nufuzli universitetlariga bakalavriat, magistratura kabi dasturlar bo‘yicha o‘qishga yubormoqda. Ular davlatimiz uchun ustuvor sanalgan sohalar — sun‘iy intellekt, axborot texnologiyalari, energetika, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, arxitektura va shaharsozlik bo‘yicha eng zamonaviy bilimlarni egallamoqda. Bu jamg‘arma shunchaki yoshlarni chet elga jo‘natadigan tashkilot emas. Uning zimmasida yangi O‘zbekiston uchun yangi avlod kadrlarini, islohotlar taqdirini o‘z qo‘liga oladigan yetakchilarni tayyorlashdek ulkan strategik vazifa turibdi. Jamg‘arma stipendiatalari bilan doimiy aloqa o‘rnatiladi, ularning o‘qish jarayoni kuzatib boriladi va Vatanga qaytgach, munosib ish bilan ta‘minlanishiga ko‘maklashiladi. Bu davlatning o‘z intellektual sarmoyasiga bo‘lgan e‘tiborining yorqin namunasidir. Ushbu yoshlar yangi O‘zbekistonning intellektual elchilari bo‘lib, Vatanga yangicha dunyoqarash, innovatsion fikr, ilg‘or boshqaruv madaniyatini ham olib keladi. Ular — bir asr avval jadidlar orzu qilgan, ammo qatag‘on tufayli amalga oshmay qolgan missiyani sharaf bilan ado etayotgan avlod. Bugun biz ular timsoilda Uchinchi Renessansning bo‘ljak yoshdorkorlarini, mamlakatimizni yuksak marralar sari yetaklaydigan yetuk kadrlarni ko‘rayotimiz.

Ko‘rinib turibdiki, ta‘lim sohasidagi islohotlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan, yagona strategik maqsadga bo‘ysundirilgan yaxlit tizimni tashkil etadi. Bu maqsad mamlakat raqobatbardoshligini ta‘minlash, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, xalq farovonligini yuksaltirish va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash hisoblanadi. Zero, XXI asrda har qanday davlatning qudrati uning tabiiy boyliklari yoki harbiy salohiyati bilan emas, avvalo, inson kapitalining sifati, fuqarolarining bilimi va intellektual darajasi bilan o‘lchanadi. Bu islohotlar muvaffaqiyati nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki butun jamiyatning ma‘naviy-

ma‘rifiy qiyofasini o‘zgartirishni ham nazarda tutadi. Bilimli, keng dunyoqarashli, o‘z haq-huquqini biladigan, qonunlarga itoat qiladigan va ayni paytda davlat qurilishida faol ishtirok etadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish barcha o‘zgarishlarning bosh maqsadi sanaladi. Ma‘rifatli inson hech qachon korruptsiyaga yo‘l qo‘ymaydi, adolatsizlikka toqat qilmaydi, atrof-muhitga befarq bo‘lmaydi. Demak, ta‘limga kiritilgan sarmoya nafaqat iqtisodiyotga, balki barqaror, adolatli va farovon jamiyat qurilishiga kiritilgan ishonchli sarmoyadir. Davlatimiz aynan shu haqiqatni barcha islohotlarning bosh mezonini qilib belgiladi va bu yo‘lda hech qanday kuch va mablag‘ ayalayotgani yo‘q.

Keng qamrovli transformatsiya jarayonida yana bir muhim jiharga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bu milliy o‘zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi masalasidir. Yangi O‘zbekistonning ma‘rifatli fuqarosi nafaqat o‘z tarixi, madaniyati va tilini chuqur biladigan, balki jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan bahramand bo‘ladigan, dunyoning turli xalqlari madaniyatiga hurmat bilan qaraydigan, ochiq va bag‘rikeng shaxs sifatida kamol topishi kerak. Islohotlar maqsadi bizni dunyodan ajratib qo‘yish emas, aksincha, dunyoga yuz ochgan, o‘zining munosib o‘rniga va ovoziaga ega bo‘lgan, global jarayonlarda faol ishtirok etadigan millatni shakllantirishdir. Jadidlar orzu qilganidek, taraqqiyotning Yevropa modelidan ko‘r-ko‘rona nusxa olish emas, balki uning eng ilg‘or jihatarini milliy, ming yillik an‘analarmizga moslab, iljdiy tatbiq etish bugungi kun siyosatining bosh yo‘nalishidir.

Shu ma‘nodan, Uchinchi Renessans poydevori faqatgina aniq fanlar yoki texnologiyalar hisobiga qurilmaydi. Uning mustahkamligi ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivoji, tarixni xolis va haqqoniy o‘rganish, yosh avlod ongida Vatanga daxldorlik hissi kuchaytirish bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham tarix, ona tili va adabiyot, san‘at va madaniyat sohalariga bo‘lgan e‘tibor keskin oshmoqda. Biz yoshlarimizga Amir Temurning davlatchilik maktabini, Beruniyning tafakkur qudratini, Navoiyning so‘z sehnini o‘rgatish orqali ularning qalbidagi milliy g‘urur tuyg‘usini uyg‘otamiz. Ayni paytda ularga sun‘iy intellekt, gen muhandisligi va raqamli texnologiyalar sirlarini o‘rgatib, kelajakka dadil qadam tashlashga zamin yaratamiz. Zero, o‘zligini chuqur anglagan, ildizlari baquvvat avlodgina globalashuvning shiddatli to‘lqinlariga dosh bera oladi va milliy manfaatlarini har qanday sharoitda himoya qila oladigan buyuk kuchga aylanadi.

Bu jarayonda har bir ziyoli, har bir ustoz-murabbiy zimmasiga ulkan vazifa yuklanadi. Biz endi shunchaki axborot uzatuvchi emas, balki yoshlar qalbiga ma‘rifat urug‘ini ekuvchi, ularning tafakkurini uyg‘otuvchi, ularga mustaqil va tanqidiy fikrlashni o‘rgatuvchi ma‘naviy yetakchilar bo‘lishimiz shart. Bugungi shiddatli islohotlar davri bizdan eskicha qoliplardan voz kechishni, doimiy izlanishda bo‘lishni, o‘z ustimizda tinimsiz ishlashni talab etmoqda. Jamiyatda ustozga, o‘qituvchiga bo‘lgan hurmatning tiklanishi, avvalo, kelajakka bo‘lgan hurmat ifodasidir. Zero, millatning ertangi kuni bugun biz sinfxona va auditoriyalarda tarbiyalayotgan yoshlar bilimi, salohiyati va ma‘naviyati bilan belgilanadi.

Xulosa o‘rnatish mumkinki, Mustaqilligimizning 34 yilligini qishlash arafasida barchamizning qalbmizda cheksiz iftixor tuyg‘usi jo‘sh urib turibdi. Bu iftixor nafaqat o‘tgan shonli tariximiz, balki bugungi bunyodkorlik ishlari, yaratilayotgan imkoniyatlar va buyuk kelajakka bo‘lgan mustahkam ishonch ifodasidir. Bir paytlar ezgu g‘oyalari uchun qurbon bo‘lgan ma‘rifatparvar bobolarimizning ruhilari bugun shod bo‘layotganiga ishonchimiz komil. Chunki ular boshlagan ma‘rifat yo‘li bugun davlat siyosatining eng yorqin va ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Biz, ziyolilar, ayniqsa, oliy ta‘lim tizimining vakillari bu jarayonlarning markazida ekanimizni har lahzda his qilib turishimiz kerak. Bizning vazifamiz shunchaki dars berish yoki ma‘ruza o‘qishdan iborat emas. Avvalo, bu borada o‘zimiz namuna bo‘lishimiz, yoshlarda ilimga chanqoqlikni, vatanparvarlikni, yaratuvchanlikni va fidoyilikni tarbiyalashimiz lozim. Har bir professor-o‘qituvchi o‘zining ilmiy maktabini yaratishi, iqtidorli yoshlarni atrofiga to‘plab, ularni katta ilm-fan yo‘liga olib kirishi bugunning eng dolzarb talabi. Oldimizda turgan vazifa — yuksak ishonchni oqlash, yurtimizdagi islohotlarga o‘zimizning munosib hissamizni qo‘shish, ilm-ma‘rifat ziyosini yanada kengroq yoyish orqali yangi O‘zbekistonning, Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini qurishda faol ishtirok etish.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.
34788 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhib: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy